

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYALAR QO'MITASI**
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga ruxsat

Kafedra mudiri _____

«____» _____ 2013 y.

**ELEKTRON O'QUV NASHRLARIDA O'QUVCHI UCHUN O'Z
BILIMINI SINASH MODULINI YARATISH (8-sinf uchun fizika fanidan
laboratoriya ishlari elektron ta'lim resursi misolida)**

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ Azizxo`jayev D.

Rahbar _____ t.f.n. Xundibayev A.

Taqrizchi _____ Sirojiddinov Sh.

HFHbo'yicha

maslahatchi _____ Amurova N.

Toshkent 2013

**O'ZBEKISTON DAVLAT ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYALAR KOMITETI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

_____ **KT** _____ fakulteti _____ **AKT** _____ kafedra

Yo'nalish: AK 5320200 – Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik

TASDIQLAYMAN

Kafedra mudiri _____

<<_____>> _____ **2013 y.**

Talaba

Azizxo`jayev Diyorjon Mirzaxmadovich

(familiyasi, ismi, otasining ismi)

**ELEKTRON O'QUV NASHRLARIDA O'QUVCHI UCHUN O'Z
BILIMINI SINASH MODULINI YARATISH (8-sinf uchun fizika fanidan
laboratoriya ishlari elektron ta'lim resursi misolida) mavzuidagi malakaviy
bitiruv ishiga**

TOPSHIRIQ

1. Mavzu _____ universitetning
_____ sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.
2. Ishni himoyaga topshirish muddati _____
3. Ishga oid dastlabki ma'lumotlar:
4. Hisoblash-tushuntirish yozmalar mazmuni (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati).

Kirish.

- 1) Axborot-resurs markazlarida elektron o‘quv nashrlaridan foydalanish tahlili
- 2) Elektron darsliklarda o‘quvchi o‘z bilimini sinash modulini yaratish texnologiyalari bayoni
- 3) Fizika fanidan laboratoriya ishlari elektron ta’lim resursini joriy etishga tayyorlash.
- 4) Tadqiqot xulosalari

Topshiriq berilgan sana _____

Rahbar _____

(imzo)

Topshiriq oldim _____

(imzo)

Ishning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilar:

Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berildi	Topshiriq oldim
1) Axborot-resurs markazlarida elektron o'quv nashrlaridan foydalanish tahlili			
2) Elektron darsliklarda o'quvchi o'z bilimini sinash modulini yaratish texnologiyalari bayoni			
3) Fizika fanidan laboratoriya ishlari elektron ta'lim resursini joriy etishga tayyorlash.			
4) Hayot faoliyati xavfsizligi			

Ishni bajarish grafigi

№	Bo'lim nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslahatchi) imzosi
1.	Axborot-resurs markazlarida elektron o'quv nashrlaridan foydalanish tahlili		
2.	Elektron darsliklarda o'quvchi o'z bilimini sinash modulini yaratish texnologiyalari bayoni		
3.	Fizika fanidan laboratoriya ishlari elektron ta'lim resursini joriy etishga tayyorlash.		
4.	Hayot faoliyati xavfsizligi		

Ushbu bitiruv malakaviyishita'lim sohasiga mo'ljallangan elektron nashlar yaratish va ulardan kutubxonalarda foydalanish borasidagi texnologiyalarni tahlil etish hamda elektron nashlarda o'quvchi bilimni sinash modullarini yaratishga bag'ishlangan.

Данная выпускная квалификационная работа посвящена разработке электронных изданий в области образования и их дальнейших использования в библиотеках, а также для разработки модулей тестирования знаний студентов

This Graduate work is devoted to the development of electronic publications in the field of education and their future use in libraries, as well as for the development of the modules testing students' knowledge.

MUNDARIJA

KIRISH	5
1-BOB. AXBOROT-RESURS MARKAZLARIDA ELEKTRON O‘QUV NASHRLARIDAN FOYDALANISH	
1.1. Elektron nashrlarni to‘liq matnli axborot resursi sifatida kutubxona fondlariga kiritish	7
1.2. Elektron nashrlar va ularning turlari	16
Bob bo‘yicha xulosa	23
2-BOB. ELEKTRON DARSLIKLARDA O‘QUVCHI O‘Z BILIMINI SINASH MODULINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI	
2.1. Elektron darsliklar yaratish bosqichlari	24
2.2. O‘quvchi bilimni sinash jarayoni algoritmini ishlab chiqish ...	28
2.3. O‘quvchi bilimni sinash modulining sxemasi	34
Bob bo‘yicha xulosa	35
3-BOB. FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI ELEKTRON TA’LIM RESURSINI JORIY ETISHGA TAYYORLASH	
3.1. O‘quvchi bilimni sinash uchun test savollari tuzish.....	36
3.2. O‘quvchi bilimni sinash moduli dasturini yaratish	40
3.3. Fizika fanidan laboratoriya ishlari elektron ta’lim resursi foydalanuvchisi qo‘llanmasini yaratish	52
Bob bo‘yicha xulosa	67
4-Bob. HFH	68
XULOSA	XX
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	XX

KIRISH

Hozirgi davr kutubxonalarini mijozlarga elektron resurslarga tayangan holda xizmat ko'rsatmoqdalar. Bu xizmatni rivojlantirish yangi turdagi fondlarning qanchalik mavjudligi bilan belgilanadi. Multimedia mahsulotlar aynan shu maqsadda yaratilgan asosiy manbaalardir. Ayniqsa o'quv-ta'lim jarayonida ularning o'rni beqiyos.

Mamlakatimizda ta'limga alohida e'tibor berilgan. Yirik manzilli Davlat dasturlari asosida o'quv muassasalarida (maktablarda, kasb-hunar kollejlari va litseylarda, institut va universitetlarda) texnik sharoitlar hozirlangan. Kompyuter texnikasi bilan to'liq ta'minlangan. Endi o'quv jarayoniga informatsion texnologiyani qo'llash eng dolzarb masala. Bu sohada respublikamizda ishlar qizg'in bormoqda.

Multimedia ishlanmalarining ta'lim sohasidagi qo'llanishi bilan ta'lim sifatining keskin oshishiga, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga asos bo'ladi. Elektron o'quv nashrlarining alohida turi hisoblangan elektron darsliklar bilimlarni ko'rgazmali va "jonli" yetkazib berishi bilan ajralib turadi.

Ushbu bitiruv ishi ta'lim sohasiga mo'ljallangan elektron nashlar yaratish va ulardan kutubxonalarda foydalanish borasidagi texnologiyalarni tahlil etish hamda elektron nashlarda o'quvchi bilimini sinash modullarini yaratishga bag'ishlangan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Asosiy maqsad elektron kutubxona resurslarda o'quvchi bilimini sinash modullarini yaratish texnologiyasining nazariyasini o'rganish va amaliyotini qo'llash chiqish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajaradi: axborot resurslarini klassifikatsiyalash; o'quvchi bilimini sinash usullari tahlil etish; o'quvchi bilimini sinash modullarini yaratish texnologiyasi nazariyasini amalda

qoʻllagan holda muayyan elektron resursda sinab koʻrish.

Tadqiqot oboekti va predmeti: Tadqiqoti obʻekti oʻquvchi bilimini sinash modulini yaratish va taqdim etish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijasida tayyorlangan oʻz bilimini sinash modulining 8-sinf uchun Fizika fanidan elektron taʼlim resursi tarkibiga kiritilishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Yaratilgan modul elektron resurs tarkibiga kiritilmagan holda, avtonom foydalanishi mumkin.

Bitiruv ishi tarkibi 4 bobdan va kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar qismlaridan iborat

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobidan kutubxona-axborot resurslari sifatida elektron nashrlarni kataloglashtirish va ulardan foydalanish, toʻliq matnli fondlarni yaratish, elektron oʻquv nashrlari turlari va ulardagi axborotlar xususiyatlari haqida maʼlumotlar va ularning tahlili oʻrin olgan.

Ikkinchi bob oʻquv elektron nashrlarida oʻquvchi bilimini sinash testlarini yaratish texnologiyalarga bagʻishlangan boʻlib, unda testlarni turlari va maqsadlari aniqlangan, oʻz bilimini sinash jarayoni algortimlari ishlab chiqilgan.

Ishning uchinchi bobida 8-sinf uchun fizika laboratoriya ishlari axborot-taʼlim resursi misolida test topshiriqlarini ishlab chiqish va oʻquvchi bilimini sinash moduli dasturini HTML va Java-script tillarida yaratish va taʼlim resursni oʻquv jarayoniga joriy etish foydalanuvchi qoʻllanmasini tayyorlash keltirilgan.


Toʻrtinchi bobda hayot faoliyati havfsizligi va yongʻin xavfsizligi deb nomlanadi va bunda inson salomatligiga ish jarayonida taʼsir etuvchi omillar va yongʻin havfsizligi qonun qoidalari keltirilgan.

1-BOB. AXBOROT-RESURS MARKAZLARIDA ELEKTRON O'QUV NASHRLARIDAN FOYDALANISH

1.1. Elektron nashrlarni to'liq matnli axborot resursi sifatida kutubxona fondlariga kiritish

Jamiyatning axborotlashuvi va zamonaviy raqamli axborot islash vositalaridan samarali foydalanish barcha sohalar kabi kutubxonachlik va arxivshunoslik sohalarida ham elektron hujjatlar bilan ishlashni taqoza etmoqda. Bu borada Hukumatimizning qator direktiv hujjatlari e'lon qilingan va amalda qo'llanmoqda.

Kutubxonalarda elektron fondlar tashkil etilmoqda. Jahondagi yirik kutubxonalar o'z fondlarini elektron resurslar bilan boyitmoqda. Mijozlarning ushbu resurslardan foydalanish darajasi yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega.



1-rasm ARM elektron resurslari.

O'quvchining kutubxona xizmatidan (kutubxonaga kelgan holda yoki masofada turgan holda) foydalanishi kerakli manbaga bo'lgan ehtiyojini

qondirishdir. Bunga javoban, albatta, kutubxonalar an'anaviy qog'oz yoki/va elektron ko'rinishdagi resurslarni o'z fondiga mujassam etishga intiladi. Kutubxonalar bevosita o'quvchilar bilan, nashriyotlar bilan, ta'lim idoralari va muassasalari bilan muloqatda bo'lganligi uchun dolzarb resurslarni aniqlash imkoniyatiga egalar.

Har tomonlama qulay bo'lganligi sababli resurslarni elektron ko'rinishda tayyorlash davr talabiga aylanmoqda. Elektron resurslarning kutubxona uchun saqlash, yetkazib berish, hisobini yuritish jarayonlaridagi qulayligi va inson mehnati sarfini keskin qisqartirishi natijasida iqtisodiy jihatdan ham samaradorligi ayni haqiqat.

Kutubxonalar elektron resurslar yaratish borasidagi harakatlari asosan qog'oz ko'rinishida ilgari chop etilgan asarlarni (ko'pincha nodir, kam nusxadagi asarlarni) raqamlashtirish bilan yakun topmoqda. Bu ham elektron resurslar yaratish borasidagi bir chora, lekin bu yerda elektron ko'rinishdagi asarga nisbatan mualliflik huquqi masalasi ko'pincha ochiq qoladi. Ya'ni asarga nisbatan mualliflik huquqiga ega shaxs asarning kutubxonada elektron ko'rinishga o'tkazilganligi va undan foydalanish yo'lga qo'yilganligini bilmasligi ham mumkin. Yuzaga keladigan bunday holatlar yuridik yechim topishi lozim.

Bizning respublikamizda ham zamonaviy Axborot-kutubxona markazlari tashkil etilishdan asosiy maqsadlardan biri mijozlarga elektron hujjatlarga asoslangan holda axborot texnologiyalarini qo'llab xizmat ko'rsatishdir.

Elektron resurslarni yaratish ancha murakkab va ko'plab soha mutaxassislari ishtirokida yaratiladi.

Mahalliy mutaxassislar ta'lim, turizm, ma'naviyat va ma'rifat sohalarida multimedial mahsulotlarini yaratib, kutubxonalar elektron resurslari fondini tashkil etmoqdalar [1,2].

Elektron nashrlar uchun bibliografik yozuvlarni yaratish va elektron katalogga kirish orqali elektron adabiyotlarning qidirilishini tashkil etish mumkin.

Dublin yadrosi tizimi 1995 yilning mart oyida AQSh Ogayo shtati Dublin shaxrida OCLC shtab-kvartirasi xodimlari tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur tizimni ishlab chiqishda yuzlab mutaxassislar ishtirok etdi. Dublin yadrosi tizimi ishchi uchrashuvlarda va elektron pochta orqali muhokama qilindi. OCLCdagi ishchi uchrashuvlarda tizimning asosiy metama'lumotlari (bugungi kunda ular 15 ta) ishlab chiqildi. Dublin yadrosining barcha elementi majburiy emas. Quyida Vilyam Arms tomonidan da keltirilgan Dublin yadrosi elementlarini keltiramiz.

Title (Sarlavha) — noshir yoki resurs yaratuvchi tomonidan resursga berilgan nom.

Creator (Muallif) — resursning intellektual mazmuniga javobgan shaxs yoki tashkilot (qo'lyozma hujjatlar uchun bu mualliflar, bajaruvchilar, vizual resurslar uchun bu fotograflar yoki illyustratorlar. Umuman olganda "sreator" so'zi "yaratuvchi" sifatida tarjima qilinadi, ammo biz uni "muallif" sifatida qabul qilish mumkin.

Subject (Predmet) — resurs mavzui. Odatda predmet yoki resurs mazmuni ochqich so'zlar yoki jumla orqali ifodalanadi. Bu elementdan foydalanilayotganda nazorat qilinayotgan so'zlardan yoki klassifikatsiyalashning format sxemalardan yordamchi material sifatida foydalanish tavsiya qilinadi.

Description (Annotatsiya) — resurs mazmunining matnli tavsifi. Hujjatlar uchun referet shaklda, vizual resurslar uchun ularning mazmunini ochib beruvchi matnli tavsif shaklda bo'ladi.

Publisher (Nashriyot) — resursni joriy holatda yaratishga ma'sul bo'lgan tashkilot, masalan, Sharq, Fan.

Contributor (resursni yaratishda qatnashuvchi ikkinchi javobgar shaxs yoki tashkilot) — “muallif” elementida ko‘rsatilmagan ammo resursni yaratishga qatnashgan shaxs yoki tashkilot. (Muxarrir, tarjimon, rassom va boshqalar).

Date (Sana) — resursni yaratish yoki paydo bo‘lish sanasi.

Type (Tip) — resurs kategoriyasi — masalan, uy sahifasi, roman, poema, maqola, preprint, texnik hisobot, lug‘at, esse.

Format (Format) — resurs ma‘lumotlarini aks ettiruvchi format (odatda dasturiy vosita tipi ko‘rsatiladi, resurs bilash ishlovchi konmpyuter tipi ham ko‘rsatilishi mumkin).

Identifier (Identifikator) — resursni identifikatsiya qiluvchi xarflar yoki raqamlar jamlamasi. Resurs tarmoqda taqdim qilinganda URL va URN ko‘rsatiladi aks holda resurs joylashgan joy adresi ko‘rsatiladi.

Source (Manba) — mazkur resurs olingan ikkilamchi manba to‘g‘risidagi axborot.

Language (Til) — resurs intellektual mazmuni bayon qilingan til.

Relation (Aloqa) — ikkilamchi resurs identifikatori va uning joriy resurs bilan aloqasi. Bu element o‘zaro yaqin resurslarni bog‘lashga hamda ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan resurslarni tavsiflashga imkon beradi.

Coverage (Qamrov) — resursni joylashgan joyi va vaqt bo‘yicha davom etishini xarakterlaydi.

Rights (Huquq) — mualliflik huquqini tasdiqlash va uni boshqarish; ular bilan bog‘liq identifikator; mazkur resurs bilan bog‘liq mualliflik huquqi va uni boshqarish to‘g‘risidagi axborotlar.

Dublin yadrosi bilan bog‘liq barcha elementlarni uch guruhga ajratish mumkin:

- Resurs majmuniga oid elementlar (Content);
- Intelektual mulk nuqtai nazaridan raqamli resursni tavsiflovchi elementlar (Intellectual Property);
- Aniq bir resurs nusxasiga tegishli elementlar (Instantiation).

Quyidagi jadvalda yuqoridagi guruhlarga kiruvchi elementlar keltirilgan.

1-jadval

Content	Intellectual Property	Instantiation
Title		
Subject	Creator	Date
Description	Publisher	Format
Type	Contributor	Identifier
Source	Rights	Language
Relation		
Coverage		

Dublin yadrosi yordamida raqamli resurslarni tavsiflash juda sodda. Tabiiy tildagi o‘n beshta maydonni har qanday odam ham to‘ldira oladi. Mazkur teglar yordamida elektron resurslarni indekslashga mo‘ljallangan.

Elektron resurslarni kataloglashtirishni tezlashtirish va sifatini oshirish maqsadida ikki bosqichli kataloglashtirish usulini taklif etiladi[2].

Kataloglashtirishning birinchi bosqichida elektron darslik, qo‘llanma, ma’ruza matni muallifi tomonidan “Dublin Core” formati asosida hujjatning dastlabki bibliografik tavsifi yaratiladi. Hujjatning dastlabki bibliografik tavsifi “Dublin Core” formatidan maxsus konvertor dasturi yordamida “UNIMARC”

formati qabul qiladigan shaklga o'tkaziladi. Buning uchun "Dublin Core" da tashkil qilingan bibliografik yozuv ISO 2709 standartida saqlanishi kerak.

Kataloglashtirishning ikkinchi bosqichida kutubxonachi kataloglashtiruvchi tomonidan ISO 2709 standartidagi yozuv AKAT bazasiga "UNIMARC" formati asosida import qilinadi. AKAT elektron katalogi bazasidagi kamida 15 ta maydon ma'lumotlarni import qilish hisobiga to'ldiriladi. Qolgan maydonlarni kataloglashtiruvchi mustaqil ravishda to'ldirib, hujjatning to'liq bibliografik tavsifini yaratadi.

Elektron resurslar katalogini yaratishda ikki bosqichli kataloglashtirish usulidan foydalanishning afzalliklari quyidagicha:

- Elektron darslik, qo'llanma va ma'ruza matni muallifi tomonidan "Dublin Core" formati asosida yaratilgan bibliografik tavsif aniq bo'ladi (darslikning sarlavxasi, mualliflari, elektron darslikning annotatsiyasi, ochqich so'zlari, kirish nuqtalari va boshqa bir qator tavsif elementlari muallif tomonidan beriladi);
- Muallif tomonidan tayyorlangan bibliografik yozuv konvertor dasturi yordamida AKATning bazasiga import qilingani uchun yo'l qo'yilini mumkin bo'lgan xatolar soni keskin kamayada;
- Kataloglashtirilayotgan hujjatning tavsifini yaratishda bevosita muallifning ham ishtirok etishi va bibliografik tavsif asosiy elementlari muallif tomonidan yaratilishi, birinchidan kataloglashtirish jarayonini tezlashtiradi, kataloglashtirish xarajatlarini kamaytiradi, ikkinchidan yaratilayotgan elektron katalog sifatini oshiradi (ochqich so'zlar, annotatsiyaning aniq ifodalanishi). Bu esa o'z navbatida xizmat ko'rsatish sifatini ortishiga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi.

"Dublin Core" formatining bibliografik tavsif tuzish qoidalariga amal qiladigan "UNIMARC" formatiga nisbatan ancha soddaligi bibliografik

yozuvlarni konvertatsiya qilishdagi asosiy muammo hisoblanadi. Bu ikki formatlarning mos elementlarini taqqoslaymiz:

2-jadval

Dublin Core	UNIMARC
<i>Title</i> (Sarlavha)	200 \$a Asosiy sarlavha
	200 \$e Sarlavhaga tegishli ma'lumot
	517 \$a Sarlavhaning varianti
<i>Creator</i> (Avtor)	700 \$a Birinchi intellektual javobgarlik – Shaxs nomi 701 \$a Alternativ intellektual javobgarlik – Shaxs nomi 710 \$a Tashkilot nomi – Birinchi intellektual javobgarlik 711 \$a Tashkilot nomi – alternativ intellektual javobgarlik 200 \$f Javobgarlik to'g'risidagi birinchi ma'lumot
<i>Subject</i> (Predmet. Ochiq so'zlar)	610 \$a Nazorat qilinmaydigan predmet atamaları 606 Mavzu nomi predmet sifatida 675 Universal o'nli klassifikatsiya (UDC/UO'K) 676 Dyuning O'nli klassifikatsiyasi (DDC/DO'K) 680 AQSh Kongressi Kutubxonasining Klassifikatsiyasi (LCC/KKK) 686 Boshqa klassifikatsiyalar indeklari
<i>Description</i> (Annotatsiya)	330 \$a Rezyume yoki referat
<i>Publisher</i> (Noshir)	210 \$c Noshir, tarqatuvchi va boshqalar nomi
<i>Contributor</i> (Muallifdosh)	701 \$a Alternativ intellektual javobgarlik – Shaxs nomi

	711 \$a Tashkilot nomi – intellektual alternativ javobgarlik 200 \$g Javbgarlik to‘g‘risidagi keyingi ma’lumotlar
<i>Date</i> (Sana)	210 \$d Nashr qilingan, va tarqatilgan sana
<i>Type</i> (Tip)	608 Hujjatning shakli, janri, fizik xarakteristikasi kirish nuqta sifatida
<i>Format</i> (Format)	230 \$a Materialning maxsus sohasi: elektron resursning xarakteristikasi 336 \$a Kompyuter faylining tipi
<i>Identifier</i> (Identifikator)	001 (UNIMARCuchun majburiy) 010 (ISBN) 011 (ISSN) 020 (Hujjatning milliy bibliografiyadagi nomeri) 035 Boshqa tizimli nomerlar 856 \$u (URL)
<i>Source</i> (Manba)	324 Ilovaning original versiyasi
<i>Language</i> (Til)	101 Hujjat tili
<i>Relation</i> (Munosabat)	300 Umumiy ilova
<i>Covarage</i> (Qamrov)	300 Umumiy ilova
<i>Rights</i> (Mualliflik huquqi)	333 Foydalanish va tarqatish shartlari to‘g‘risida ilova

Hujjatlarga UNIMARC (MARC21, RUSMARC) formatlari asosida ishlov berganda ba’zi bir maydonlarning to‘ldirilishi majburiydir, aks holda bibliografik tavsif to‘liq bo‘lmaydi. Quyida UNIMARC formatida to‘ldirilishi majburiy bo‘lgan maydonlarning “Dublin Core” formatidagi maydonlar bilan mosligini taqqoslaymiz.

UNIMARC	Dublin Core
001 – Yozuv identifikatori	<i>Identifier</i> (Identifikator)
100 – Umumiy ishlov berilayotgan ma'lumotlar	<i>Date</i> (Sana), <i>Language</i> (Til)
101 – Hujjat tili	<i>Language</i> (Til)
200 – Sarlavha va javobgarlik xaqidagi ma'lumotlar	<i>Title</i> (Sarlavha), <i>Creator</i> (Muallif), <i>Contributor</i> (Muallifdosh)

Elektron nashrlarning bibliografik yozuvini yaratish uchun O'zbekiston Respublikasi standarti amal qiladi - O'z DSt 2312:2011 Axborot, kutubxona va nashriyotchilik ishi bo'yicha standartlar tizimi. Bibliografik yozuv. Elektron ko'rinishdagi axborot-kutubxona resurslarining bibliografik tavsifi. Umumiy talablar va tuzish qoidalari [19].

1.2. Elektron nashrlar va ularning turlari

Multimedia (“*multi*” – ko‘p, “*media*” – vosita, jihat) resurslari deganda tarkibida turli xil ko‘rinishdagi (matn, tasvir, audio, video) axborotlarni uyg‘unlikda mujassam etgan elektron nashr tushuniladi. Bunday resurslarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- qomuslar;
- elektron o‘quv nashrlar;
- o‘yinlar va ko‘ngil ochar dasturlar;
- trenajerlar;
- ma’lumotnomalar, prezentatsiyalar, reklamalar.

Elektron nashr – bu grafik, matn, audio , video axborotlarni jamlagan materiallar yig‘indisi. Elektron nashrlar lokal kompyuter magnit diskida, optik kompakt disklarda, kompyuter tarmoqlarida va Internetda joylashishi mumkin.

Elektron nashrlarni har xil belgilari bo‘yicha guruhlash mumkin. Masalan, mo‘ljallanish nuqtai jihatdan ular: Umumiy, ilmiy, o‘quv, bolalar va boshqalar ajratilishi mumkin.

Elektron o‘quv nashr - ilmiy malakaviy bilimlarning tizimlashtirilgan materiallaridan tashkil topgan bo‘lib, bu o‘quvchi, talabalarning bilimlarini faol ravishda o‘stirib borishga xizmat qiladi. Elektron o‘quv qo‘llanma yuqori darajada foydalanish va ko‘rsatmalar sifati, texnik foydalanish sifati, aniqlik, mantiqiylikka ega.

Elektron o‘quv qo‘llanma yuqori metodik va ilmiy darajada yaratiladi.

Mutaxassislarining fikricha, faqat matnlarni o‘qish bilan o‘zlashtirilgan bilimlarning vaqt o‘tishi bilan 14% esda saqlanar ekan, tovush orqali qabul

qilingan ma'lumotlarning 13% , bir paytning o'zida ham ko'rish ham eshitish orqali qabul qilingan materialning 50% esda saqlanar ekan. Agarda materialni o'zlashtirishda ko'rish, eshitish va ayni paytda o'zlashtirish jarayonida o'quvchining o'zi ham faol ishtirok etsa materialning 75% esda saqlanar ekan. Demak, mustaqil bilim olishda interfaol usullardan foydalanishning samarasi ko'rinib turibdi. Bilimlarni egallashda ko'rish, eshitish va materialni o'zlashtirishda faol ishtirok etish jarayonida multimedia tizimlaridan foydalanish katta samara beradi.

An'anaviy bilim olish vositasi sifatida qog'oz ko'rinishida chop etilgan nashrlar (kinob, jurnal, gazetlar), televidenie va radio hisoblandi. Keyingi davrda yangi vosita informatsion texnologiya asosidagi muhtidra ishlanmalari chiqmoqda [3,4,6].

Билим олиш воситалари



2-rasm. Bilim olish vositalari [3].

Bilim olish vositalari xususiyatlarining tahlili [3].

Vosita nomi	Yutug'i	Kamchiligi	
Qog'oz ko'rinishidagi nashr (kitob, jurnal, gazet i boshqadar)	Foydalanishda texnix vosita talab etilmaydi	Animatsiya, audio, video materiallarning yo'qligi	
		O'rganishda dialog va interaktiv rejimlari yo'qligi	
		Uzoq muddatda yaratilishi va takomillashtirishning imkoniyati yo'qligi	
Televideniye va radio	animatsiya, audio, video	Matn ko'rinishidagi materialning yo'qligi	
		O'rganishda dialog va interaktiv rejimlari yo'qligi	
		Foydalanish uchun texnik vosita talab etiladi.	
Multimediali kompyuter ishlanmalari	Barcha turdagi axborot turlari (matn, tasvir, video, audio) va animatsiya	Foydalanish uchun texnik vosita talab etiladi.	
			O'rganishning dialog va interaktiv rejimlari
			Qisqa muddatda tayyorlanishi va takomillashtirish mumkinligi

Elektron nashrlarning katta guruhidan **ta'lim sohasida** foydalaniladi.

Mamlakatimizda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish kundan kunga dolzarblashib bormoqda. Chunki, ta'lim muassasalarida (maktablarda, kollejlarda, litseylarda, institutlarda, universitetlarda) texnik baza muhayyo etilgan, ya'ni zamonaviy kompyuter texnikasi bilan to'liq ta'minlangan. Endi kerakli elektron o'quv qo'llanmalarini ta'lim jarayonida qo'llash qoldi, xolos.

Elektron o'quv qo'llanmalari ilmiy malakaviy bilimlarning tizimlashtirilgan materiallaridan tashkil topgan bo'lib, bu o'quvchi, talabalarning bilimlarini faol ravishda o'stirib borishga xizmat qiladi. Ular uch guruhga ajratiladi:

- elektron darsliklar (*an'anaviy qog'oz ko'rinishidagi darslik vazifasini to'liq bajaradigan va qisman o'qituvchi vazifasini ham bajaradigan elektron nashr*);
- o'quv filmlari (*an'anaviy qog'oz ko'rinishidagi yoki elektron ko'rinishidagi asosiy darslikni to'ldiruvchi videolavha ko'rinishida tayyorlangan elektron nashr*);
- ma'lumotnomalar (*ma'lum soha bo'yicha atama, xulosa, formula kabi umumiydashgan bilimni o'zida mujassam etgan ta'lim jarayonini to'ldiruvchi elektron nashr*).

Elektron darsliklar.

Mamlakatimizda va xorijda yaratilgan elektron darsliklar tahlili va soha mutaxassislari tavsiyalari asosida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Elektron darslikda quyidagi turdagi materiallar (blokklar) bo'lishi tavsiya etiladi: mavzu matni (asosiy va qo'shimcha), tayanch so'zlar, izohli lug'at, test, savol va topshiriqlar, tasvir, animatsiya, video, audio, mashq, o'yin-lavha (*rasmga qarang*).
- Materiallar, avvalo, Davlat ta'lim standartlariga mos bo'lmog'i lozim.

- Materiallarni o‘quvchiga yetkazishda foydalanilgan pedagogik va texnologik stsensariylar elektron darslik muvaffaqiyoti va samaradorligini belgilaydi.

Aksariyat elektron darsliklarda puxta pedagogik va texnologik stsensariy joriy etilmaganligi uchun elektron darslik bir talay o‘quv materiallarining shunchaki to‘plamiga aylangan. Unda hech qanday ta’lim traektoriyasi hisobga olinmagan. Materialni o‘rganishning ketma-ketligi joriy etilmaganligi uchun o‘quvchi qaerdan boshlab o‘rganishni ham bilmaydi. Bunday elektron darslikni o‘quv jarayoniga joriy etishdan foyda yo‘q.

An’anaviy bilim berish bosqichlaridan elektron darslikda ham foydalanish lozim, ya’ni yangi mavzuni o‘rganish va shu mavzuda olingan bilimni mustahkamlash. Ularni elektron darslikda rejimlar sifatida realizatsiya qilinishi maqsadga muvofiq: **“O‘rganish”** va **“Mustahkamlash”** [4]. Ushbu bo‘linish klassik bo‘linma bo‘lsada, elektron darslik yaratish bo‘yicha mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishlarida ham qaysi o‘quv materialini qaysi bo‘linmada faol bo‘lishi aniq ko‘rsatilmagan.

Aslida har bir materialning qaysi bo‘linmada bo‘lishi mavzuni o‘zlashtirish uchun juda muhim. Ayrim materiallar faqat “O‘rganish” yoki “Mustahkamlash” rejimi uchun xos bo‘lsa, ayrimlarining har ikkala rejimda bo‘lishi maqsadga muvofiq (3-rasm):



3-rasm: O‘quv materiallarining rejimlar bo‘yicha taqsimoti.

«O‘rganish» rejimi. Elektron darslikda joriy etilgan ushbu rejimda o‘rganuvchiga har bir mavzu bo‘yicha ikki blok material taklif etiladi: asosiy matn, qo‘shimcha matn. Matndagi muayyan jumla mazmunini yoritishga xizmat qiladigan tasvir, animatsiya, video, audio materiallar giperbog‘liklik sifatida qo‘yiladi.

Tushunarli bo‘lishi uchun tasvir bilan ishlash jarayonini ko‘rib chiqaylik. Matn ichiga qo‘yilgan tasvir giperbog‘ligini faollashtirish (masalan, “rasm” so‘zi ustida sichqoncha tugmasini bosish) orqali matn ustida paydo bo‘ladigan kichik darchaga o‘sha tasvir chiqariladi. Muayyan tasvir bilan tanishib bo‘lgach, darchani yopib matnga qaytiladi. Agar mavzu matni orasiga giperbog‘liklar emas tasvirlar qo‘yilsa, elektron darslik mohiyati buzilgan bo‘lar edi (Shu tarzda ishlangan elektron darsliklar ko‘p). Bu quyidagi sabablarga ko‘ra noto‘g‘ri yechim:

Birinchidan, odatda elektron darslikning bitta mavzusida o‘nlab tasvirlarga murojaat qilinadi. Agar ularni matn orasiga qo‘yilsa, matnni o‘qish juda qiyinlashib ketadi.

Ikkinchidan, matnning biror jumlasini yoki muayyan so‘zni (masalan, predmet nomi, olim familiyasi) izohlovchi tasvir faqat shu jumlaning o‘qiyotgan paytda ko‘rinishi lozim. Agar tasvir avvaldan matn ichida bo‘lsa, o‘quvchini chalg‘itadi. Tasvirni bu usulda qo‘yish qog‘oz ko‘rinishidagi darslik uchun xos, chunki kitobda istalgan paytda tasvirni paydo qilish yoki yo‘qotish imkoniyati mavjud emas.

Video va animatsiya materiallari ham kerakli o‘rinda faollashishi lozim.

O‘rganilayotgan butun mavzu matni mohiyatini o‘zida mujassam etgan qisqa matn (odatda, 3-4 jumla) tayyorlanishi va ovoz bilan ta’minlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunday «Yodda tuting!» matnining alohida darchaga chiqarilishi va ovoz bilan ta’minlanishi mavzuning asosiy ma’nosini o‘zlashtirishni kuchaytiradi.

Yangi mavzu uchun xarakterli bo‘lgan tayanch so‘zlarni mavzu matni bilan bog‘lash amalga oshirilgan bo‘lishi lozim.

«Mustahkamlash» rejimi. Mazkur rejimda o‘quvchi «O‘rganish» rejimida olgan bilimni mustahkamlaydi.

Bu yerda o‘quvchiga mavzu matni berilmaydi. Ehtiyoj tug‘ilganda u «O‘rganish» rejimiga o‘tib, mavzu matnini yana o‘qib olishi mumkin. “Mustahkamlash” rejimi uchun interaktiv mashq, animatsiya, tasvir, videolavha va o‘yin-lavha bloklari tavsiya etiladi. (Bu yerda tasvir “O‘rganish” rejimidagidan farqli ko‘rinishda, ya’ni mavzuga oid barcha tasvirlar to‘plami /galereyasi/ ko‘rinishida beriladi.) Keltirilgan materiallar asosida o‘quvchi o‘tilgan materialni so‘zlab berishga tayyorgarlik ko‘radi.

Bundan tashqari rejimda o‘quvchiga o‘z-o‘zini tekshirish testini bajarish tavsiya etiladi. Testni qayta bajarish imkoniyati mavjud. Bu yerdagi test savollari joriy mavzu bo‘yicha tuzilishi kerak.

Ikki rejimda («O‘rganish» va «Mustahkamlash») ham qidiruv tizimiga ega bo‘lgan izohli lug‘atga murojaat qilish imkoniyati bo‘lishi lozim.

Bayon etilgan pedagogik va texnologik stsenariy asosida ishlangan elektron darslik yangi mavzuni tushuntirish va mavzu materiallari o‘zlashtirilishini nazorat qilish orqali sinf-dars mashg‘ulotlari samadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sinf-dars mashg‘ulotlarida olingan bilimlarni mustahkamlash, uy vazifasini bajarish va o‘z bilimni tekshirish jarayonida elektron darslikdan foydalanish o‘quvchilarning darsdan tashqarida o‘quv materiallari bilan ishlash jarayoni samaradorligini oshiradi.

O'quv filmlar.

O'quv filmi muayyan fan bo'yicha o'quvchiga tushunish qiyin bo'lgan mavzu va materiallarni videolavhalar asosida tushuntirishga harakat qilinadi. Shu bilan o'quv filmlari o'quvchining bilim olish jarayonini osonlashtirib, o'qituvchi ishini esa yengillashtiradi.

Ma'lumotnomalar.

Ma'lumotnomalarni elektron va an'anaviy darslikni to'ldiruvchi sifatida qarash mumkin. Ma'lumotnomalar lug'atlar, prezentatsiyalar va boshqa shakllarda tayyorlanadi. Ular asosan ma'lum fan bo'yicha qisqa, lo'nda ta'riflar va izohlar ko'rinishidagi materiallardan tashkil topgan. Ma'lumotnomalar ham multimedia (matn, tasvir, audio, video) materiallarini o'zida mujassam etadi.

Bob bo'yicha xulosa

Ishning 1-bobida elektron o'quv nashrlarining elektron kutubxonalardagi o'rni, ularning turlari tahlil etildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

- Multimedia ishlanmalarini kutubxona axborot resurslarining to'liq matnli resursini tashkil etadi. Ular haqida ma'lumotlar, albatta, kataloglarga kiritilishi lozim. MARC format asosida kataloglashtirishda elektron resurslar an'anaviy (qog'oz ko'rinishidagi) resurslardan farqlanadi.
- Ta'lim sohasida foydalanishga mo'ljallangan ishlanmalar funksional jihatdan shartli ravishda 3 guruhga (elektron darslik, o'quv film, ma'lumotnoma) ajratiladi. Ko'rgazmali, interaktiv ravishda individual bilim olish manbasi bo'lgan elektron darsliklarni yaratishda ikki rejim mavzuni o'rganish va mustahkamlash aniq (chegaralangan holda) ishlab chiqilishi lozim.

2-BOB. ELEKTRON DARSLIKlarda O‘QUVCHI O‘Z BILIMINI SINASH MODULINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI

2.1. Elektron darsliklar yaratish bosqichlari

Elektron o‘quv qo‘llanma arxitekturasi kompyuterlashtirilgan axborot texnologiyalarini egallash harakatidir. Poligrafik nashrlarni nusxalashda, yozilgan CD-ROM lar yoki Internet birgalikdagi zarbasiga uchradi. Bu albatta otsiz sakrashga o‘xshaydi chunki hech qanday qog‘ozbozliksiz elektron yo‘llar orqali nashr qilish yoki ko‘paytirish imkoniyati bor.

Taqdim etilgan ma’lumotlar yangi shaklda, elektron o‘quv qo‘llanmada tasvirlanadi. Elektron o‘quv qo‘llanmaning birinchi shakli matn ko‘rinishida ishlab chiqildi Hozirda esa uning ko‘rinishi murakkab holga yetib keldi. Elektron o‘quv qo‘llanmaga hozirda matn, ovoz, musiqa, video va boshqa internet tarmog‘i imkoniyatlari qo‘shib borilmoqda. U televizion va radio uzatish imkoniyatiga ega.

Multimedia o‘quvchi o‘qituvchilarning ekran dizayniga bo‘lgan munosabatini kamaytirdi. Tan olish kerak ma’lumotlar foydalanuvchilarga yangi imkoniyatlar bilan berilmoqda. Shu bilan bir qatorda har xil ko‘rinishdagi muammolar, bog‘liqliklar, masalan, foydalanish manbalari yetishmaydigan maxsus bilimlarni pulga olishlaridir. Bu muammoning yechimini takrorlanmas, eng zamonaviy elektron o‘quv qo‘llanmalar ko‘rsatib berdi. Zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti strategiyasi yo‘nalishni ma’lumotdan bilimga belgilaydi. Kompyuter dasturlari bilimlarni tashish vazifasini bajaradi degan fikr, faqat ma’lumot yoki uning shakli, belgilangan butunlik ta’minlanadi. Darhaqiqat birinchi elektron o‘quv qo‘llanmada algoritmlash amalga oshirilib, muallif butun o‘qitishni shakllantirishga erishdi. Bu elektron o‘quv qo‘llanma evolyutsiyasiga multimedyaning taraqqiyoti sabab bo‘ldi. Ammo aynan u foydalanuvchilar axborot

resurslarining kelajagini belgilaydi. Eng yaxshi elektron o'quv qo'llanmalarda chuqur ma'no, yana metodik va pand – nasihat darajasi strategiya va algoritmiga ega.

Elektron darsliklarni yaratishning bosqichlari qo'yidagilardan iborat:

1-bosqich. Elektron darslik maqsadi va kontseptsiyasini aniqlash. Bularni aniqlash uchun, albatta, Davlat ta'lim standartiga va shu paytgacha o'quvchilar olgan bilimga tayanish zarur.

2-bosqich. Elektron darslikning metodologik tarkibini aniqlash: Fan bo'yicha elektron darslik yaratish uchun mavzularni aniqlash, yoritiladigan materiallar chegaralarini belgilash, ya'ni ochib beriladigan jarayonning qanchalik chuqurlashishi, ilmiylashishi va o'quv dasturiga mosligini belgilash.

3-bosqich. Har bir mavzu bo'yicha senariysi matnini tayyorlash. Bunda amaldagi elektron yoki an'anaviy darslikda keltirilgan materiallarni to'ldirilishiga, ularda ishlatilgan atamalardan foydalanishga amamiyat berish lozim. Ko'rgazmalilikni ta'minlash uchun mavjud materiallarni tahlil etish va lozim bo'lganda qo'shimcha ravishda animatsiya usulida yoritiladigan yoki tasvir ustiga chiqariladigan matn ko'rinishida keltiriladigan materiallarni aniqlash kerak. Statik tasvirlar grafika tahrirlagichlarida qayta ishlanishi maqsadga muvofiq.

4-bosqich. Har bir mavzu video, animatsiya fayllarni yaratish. Nochiziqli montaj usulini qo'llagan holda videotahrirlagichda videolavhalar va statik tasvirlardan butun filmni montaj qilish. Bu yerda titr yozuvi va boshqa yozuvli sharhlar ham (masalan, formula, ta'rif) ekranga chiqariladi.

5-bosqich. Ovozsiz filmni senariy bo'yicha tahlil etish va suhandon matnini to'liq ishlab chiqish. Senariyda keltirilgan g'oyalarning amalga oshirilishi tahlil etiladi. Kerak bo'lsa, stsenariyga ham o'zgartirishlar kiritiladi va videoqatorning montaji qayta bajariladi. Videomaterial stsenariyga mosligi aniqlangach, filmni

ovozlashtirish maqsadida suhandon uchun matn tayyorlanadi.

6-bosqich. Testlarni yaratish. Berilgan mavzular bo'yicha test topshiriqlarini ishlab chiqish.

7-bosqich. Asosiy matn bilan uyg'unlikdagi qo'shimcha matn va asosiy matnda keltirilgan asosiy fikrlarni to'plagan "Yodda tuting!" matnini tayyorlash.

8-bosqich. O'yin topshiriq va amaliy topshiriq mashqlarini tayyorlash. Uni tayyorlashda o'quvchining olgan bilimlarni, tushunchalarni guruhlarga ajratish, ta'riflarini bilish kabi masalar diqqat e'tiborda bo'ladi.

9-bosqich. Elektron darslikning fayllarni kompyuterla saqlash. Ko'p ishlatiladigan senariylar, bezaklar alohida kataloglarda saqlash maqsadga muvofiq.

10-bosqich. Elektron darslik mundarija-menyusini tayyorlash.

11-bosqich. Elektron darslikdan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanma va foydalanuvchi qo'llanmasini yaratish. Dars jarayonida foydalanish bo'yicha o'qituvchilarga metodik qo'llanma va darsdan tashqarida foydalanish bo'yicha esa o'quvchilarga foydalanuvchi qo'llanmasi yaratilishi lozim. Metodik qo'llanmani yaratishda o'quv dasturiga muvofiq qaysi darsda va dars jarayonida foydalanish bo'yicha tavsiyalar metodik qo'llanmada keltiriladi. Foydalanuvchi qo'llanmasida esa elektron darslikni kompyuterga o'rnatish va ulardan foydalanish uchun qo'shimcha tizimiy qo'llab quvvatlovchi dasturlar o'rnatilishi va moslashishi haqida va elektron darslikni boshqarish haqida ma'lumotlarni keltiriladi.

12-bosqich. Sinov-tajribadan o'tkazish. Yaratilgan elektron darslikni bevosita o'quv jarayonida sinab ko'rish. Agar qandaydir didaktik yoki pedagogik jihatdan nuqsonlar uchrasa, o'quvchilar uchun tushinish qiyin joylar bo'lsa, ular yo'qotiladi.

13-bosqich. Elektron darslik dasturiy mahsulot ko'rinishida eltuvchilarda

(CD yoki DVD) tarqatish uchun disk usti bezaklarini tayyorlash. Bunda mavjud standartga rioya etish lozim - ГОСТ 7.83-2001. «Электронные издания. Основные виды и выходные сведения.» [18]

Elektron darslik quyidagi mutaxassislarning ishtiroki talab etiladi:

- Malakali soha mutaxassisi. Uning vazifasiga sohani, ob'ektni tanlash, senariychi mutaxassis bilan birgalikda mavzular bo'yicha senariyni yaratishda qatnashish, ovozlashtirish uchun (suhandon o'qishi uchun) matnni tayyorlash kiradi.
- Stsenariychi mutaxassis. Elektron darslik senariysini tuzishda qatnashadi.
- Dasturchi-dizayner. Elektron darslikga qo'shiladigan tasvirlarni qayta ishlash, menyu, ishchi darcha dizayni va mahsulotni qadoqlash uchun bezaklarni yaratishni amalga oshiradi.
- Dasturchilar. Filmni montaj qilish va video namoyishni ta'minlash, testtopshiriqlarni tayyorlash, o'yin va amaliy mashqlarni tayyorlash bilan shug'ullanadilar. Matnni formatlash, tasvirlar galereyasini yaratish, audio axborotlarni ishlash, video axborotlarni ishlash, nohiziqli montaj qilish, animatsiya materiallarni ishlash ularning zimmasida.
- Suhandon. Matnni ifodali o'qishni amalga oshiradi.

Elektron darsliklarni yaratish jarayonida yuqridagi mutaxassislar safiga ko'pincha quyidagilar qo'shiladilar:

- Malakali pedagog-uslubchi (yaxshisi, amaldagi darslik muallifi).
- Maktab amaliyotidagi pedagog. Yaratilgan mahsulotni sinashda va foydalanuvchi qo'llanmasini yaratishda ishtirok etish uning vazifasiga kiradi.

2.2. O‘quvchi bilimni sinash jarayoni algoritmini ishlab chiqish

Kompyuter testlashinig katta yutug‘i shundaki, testni o‘tkazishning operativligi, test topshiriqlarini tahrirlashning qiyin emasligi, soddaligi va nusxalashning osonligi, o‘z-o‘zini nazoratni amalga oshirish mumkinligi.

Elektron o‘quv resursi yaratishda mualliflar testlash jarayonini modellashtirishda predmet va o‘quvchi xususiyatlarini nazarda tutmog‘i lozim.

• O‘quvchi bilimni nazorat etuvchi elektron tizim quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- “Bir qancha javobdan birini tanlash” tipidagi savollarni taklif etish;
- Avvalgi javoblarni hisobga olgan holda keyingi savolni tanlash;
- Grafik tasvirlar va gipermatn bog‘lanishlarni o‘zida aks ettira olish;
- So‘rovdan o‘tish jurnalini yurgizish;
- Distantion ta’limda foydalanish.

Testni tashkil etishda o‘qituvchi ish o‘rni paydo qilinadiki, uning yordamida test savollarini tahrirlash mumkin.

Bugungi kunda elektron tarmoq testlari o‘tkazish bo‘yicha o‘rnatilgan tartib yo‘q. Talabalar distantion ravishda veb-sahifadan testni oladilar bajarishga kirishadilar. Ma’lum muddat ichida keltirilgan savollarga javob berish talab etiladi.

Testlash ta’lim jarayoning har bir bosqichida qo‘llanmoqda. Samarali dastlabki, joriy va yakuniy tesstlar orqali bilimni nazoratlash, o‘zlashtirishni aniqlash mumkin.

• Testlash talim jarayoniga ko‘plab yutuqlarni olib keladiki, ular qatorida:

- Natijalarni tekshirishning ob'ektivligi;
- Testlar sonining oshishi va doimiylashuvi o'qituvchining nazorat faoliyati samaradorligi oshiradi;
- Kompyuter texnologiyalariga asoslangan holda bilimni aniqlashning avtomatizatsiya qilinishi;
- Distantion ta'lim sohasida foydalanish mumkinligi.

Shunday bo'lsada, test shakli mutlaq maqbul variant deb aytib bo'lmaydi. Testlash yo'li bilan bilimni, ko'nikmani o'zlashtirilishini doimo ham aniqlab bo'lmaydi. Masalan, o'quvchi o'z bilimini konkretlashtirgan holda ko'rsatishi testda amalga oshirilmaydi. Bu testning an'anaviy usullar bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

- Oxirgilarga quyidagilar kiradi
 - Mulohaza uchun interfaol savollar;
 - Yozma ishlarni himoya qilish (referatlar, esse yoki kurs ishi);
 - Har xil ko'rinishdagi topshiriqlarni bajarishi;
 - Dipolm ishlarini tayyorlash va himoyalash;
 - Zachet va imtixon topshirish (yozma yoki og'zaki shaklda);
 - Seminarlarda qatnashishi (distantion ta'limda – chat va forumda qatnashish);
 - Suhbatlashish va konsultatsiyalar (distantion ta'limda tele- va videokonferentsiyalarda yoki chatda) va boshqalar.

Test savollarini tayyorlashda tavsiyalar va qo'yiladigan talablar

Attestatsiyaning bir shakli yuqorida aytilganidek – testlashdir, ya'ni nazariy bilim, intellektual malaka va amaliy kўnikmalarni ob'ektiv aniqlash. Testlashni samarali qo'llash uchun quyidagi bir qator tavsiyalarni keltirish mumkin.

- **Maqsad.** Oraliq va yakuniy nazorat bilan o'quvchi bilimlarni aniqlash kompleks tizimlari:

- Bilmilarni sistemativizatsiyalash;
 - Axborotlarni erkin qidirish malaka va ko'nikmalarni yaratish,;
 - Axborotlarni tahlil etish malakasini o'stirish;
 - O'quvchida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish;
 - Ta'lim faoliyati natijasi axboroti asosida o'quvchida o'qishga qiziqishini oshirish;
 - Bilim va ko'nikmalarni diagnostika qilishni o'quvchiga o'rgatish.
- **Talablar.** Ta'limning qaysidir bosqichida o'quvchi bilimini sinash uchun, test savollari quyidagi talablarga javob bermog'i lozim.
 - Talaba olgan axborotlarni asosida test tuzilishi lozim (ma'naviy validlik);
 - O'zlashtirish darajasiga testning mosligi (funktional validlik);
 - Aniqlik, har bir talabaning savolni to'g'ri tushunishidan tashqari to'g'ri va noto'g'ri javoblarni chiqarib tashlash (tanish) imkoniyati bo'lsin;
 - Soddalik, ya'ni test savollari aniq savollar bilan yakunlashni lozim. Ya'ni bitta testda komplekslashgan javoblar bo'lishi mumkin emas;
 - Bir hil tushunish, ya'ni testning bajarilishi bir xil bo'lsin;
 - Testning ishonchliligi, ya'ni test qilinayotganning natijasi odatda bir qancha bajarganda ancha bir xillashib borishi lozim.
 - **Tavsiyalar.** Testlash moduli yaratilayotganda quyidagi tavsiyalar keltiriladi:
 - Testlash maqsadini aniq shakllantirish:
 - Oraliq darajadagi bilimni aniqlash;
 - Yakuniy darajadagi bilimni aniqlash;
 - Ma'lum materialni qaytarish;
 - Ma'lum masalani (muammoni) yechish;
 - Testda savollarni oshirish uning ishonchliligini ta'min etadi;
 - Har xil turdagi va ko'rinishdagi test topshiriqlarni yaratish testning to'liqligini ta'min etadi;

- Ikki javobdan iborat test savollari (“ha” va “yo‘q”) test ishonchliligini tushirib yuboradi;
- Test savolini maksimal sodda ko‘rinishda tayyorlash lozim;
- Kitoblardan tsitalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirish kerak emas;
- O‘quvchini chalg‘ituvchi savollarni qo‘shmaslik lozim;
- Testda boshqa masalalarga javob bo‘ladigan savollar bo‘lmasligi lozim;
- O‘quvchi alohida eruditsiya bilan javob topishi mumkin bo‘lgan savollarni testga qo‘shmaslik lozim;
- O‘rganilgan material uchun arziyas, chetda qoladigan ko‘ringan qismlarni savollarga qo‘shmaslik lozim;
- Savollarni tashkil etish shakllariga e‘tibor berish lozim;
- Testda grafika (diagramma, jadval, tasvir, sxema, blok-sxema va boshqalar) dan foydalanish lozim;
- Har bir savol konkret javobni qabul qilishi lozim, ko‘p ma‘noli savoldan qochish lozim;
- Test savollari o‘quvchiga tushinarli ko‘rinishda tayyorlanmog‘i lozim.

Test savollari shakli, turlari

Elektron o‘quv nashrlarida test topshiriqlari shakli va turi muhim. Test shakli testning tashqi ko‘rinishini, turi esa uning mazmunini bildiradi. Test turi o‘quvchining ichki fikrlash faoliyatini ko‘rsatadi.

- Test turi o‘zlashtirishning quyidagi ko‘rinishiga tug‘ri keladi:
 - tanishuv;
 - qayta ishlash (tiplashgan masalani yechish);
 - qo‘llash (tiplashmagan masalani yechish).

Har qanday testni bir necha javoblar orasidan birini tanlash asosida bajariladigan turda tayyorlash mumkin. Testni bajarayotganda o‘quvchi qanday


fikrlashini aniq tasavvur etish lozim. Agar o'quvchi test javob variantlarni aniqlash operatsiyasini qo'llab bajarsa, bu test tanishuv testi hisoblanadi. Moboda o'quvchi avval tiplashgan yoki tiplashmagan masalalarni javobni shakllantirib (oldingi bilimga asoslangan holda), keyin javob variantini tanlasa, ikkinchi yoki uchinchi darajadagi test bo'ladi.

Zamonaviy test savollari tanlash, sonli va konstruktsiyalangan javoblar bilan bo'lishi mumkin. Amalda eng ko'p qo'llaniladigani javoblarni tanlash orqali bajariladigan test tanlash testlaridir. Bunday testlar tayyorlashda va foydalanishda sodda. Tanlash testida o'quvchi topshiriqni bajarishga e'tibor qaratadi, javobning terib kirishga emas. Faqat bir turdagi test topshiriqlari talabalarning bilimlarini aniqlash imkonini bermaydi. Shuning uchun 4-5 javobdan iborat testlarni bajarish bilan birgalikda boshya turdagi testlardan ham foydalanish zarur. Testni bajarishda asosiy e'tibor tushunchalar (hodisalar, faktlar, voqealar) ustida boradi.

Testlash va trening tizimi shakllarining to'plami va turlari bor:

- *javobni tanlash topshiriqlari (o'quvchi to'g'ri javobni tayyor javoblar orasidan tanlaydi);*
- *to'ldirishga topshiriq (o'quvchi to'liq yoki qisqa ravishda javobni bo'sh joyga yozadi);*
- *ikki to'plam elementlari orasida moslik o'rnatish topshirig'i;*
- *bir qancha elementlar asosida to'g'ri ketma-ketlik tashkil etish yo'li bilan javob etish;*
